


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

4

28 944



Mas'uliyati
cheklangan jamiyat

3 812



Oilaviy korxonona

281



Unitar korxonona

6 539



Xususiy korxonona

49



Aksiyadorlik jamiyati

270



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2019- y. ■ 2020- y.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-noyabr oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-noyabr oylarida, birlikda)








Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **28,2** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish
 ■ O‘rmon xo‘jaligi
 ■ Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,8 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



426

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

7 955

Ishlab chiqarish sanoati

71

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

196

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 8 648 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,8 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 114,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 123,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 129,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,8 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 117,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,3 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **19,5** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlarisoni




19,1 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




22,7 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




61,1 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **59,5** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 540 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,1 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 112,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 54,0 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 132,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,2 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 126,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 38,8 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 12 330 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 130,5 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 132,2 % ga (jami savdodagi ulushi 69,8 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 125,5 % ga (jami savdodagi ulushi 23,2 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 131,3 % ga (jami savdodagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.



- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

701



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

23



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

23



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



300

yashash bo'yicha xizmatlar



3 062


Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 3 362 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,4 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 112,9 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 91,1 %), yashash bo'yicha xizmatlarning- 132,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 8,9 %) o'sishidir.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 4 209 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 246 taga yoki 142,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 812 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 097 taga yoki 140,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 147 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37 taga yoki 3,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 32 344 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 300 taga yoki 124,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 28 944 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 850 taga yoki 125,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 5 822 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 553 taga yoki 8,7 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 1 439 tani tashkil etib, ulardan 1 306 tasi yoki 90,8 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 195 taga yoki 115,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 136 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- noyabr oylarida, birlikda)



**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi**
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent viloyati	1439	730	709
Oqqo'rg'on t.	14	7	7
Ohangaron t.	81	33	48
Bekobod t.	11	8	3
Bo'stonliq t.	62	34	28
Bo'ka t.	14	9	5
Quyichirchiq t.	44	23	21
Zangiota t.	190	92	98
Yuqorichirchiq t.	117	59	58
Qibray t.	149	80	69
Parkent t.	25	14	11
Piskent t.	20	10	10
O'rtachirchiq t.	87	41	46
Chinoz t.	24	12	12
Yangiyo'l t.	81	31	50
Toshkent t.	80	51	29
Nurafshon sh.	61	29	32
Olmaliq sh.	48	15	33
Angren sh.	110	72	38
Bekobod sh.	23	16	7
Ohangaron sh.	47	22	25
Chirchiq sh.	83	50	33
Yangiyo'l sh.	68	22	46

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent viloyati
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi

Tel.:71 202-86-83